



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Xurshid Azamatovich Yunusov Tadbir va ko‘ngilochar xizmatlarni rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish	154
Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov Logistika axborot oqimlarini sun‘iy intellekt asosida optimallashtirish	159
Nodirjon Fayzullayevich Bekbutayev Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va hududiy boshqarmalar faoliyatining samaradorligi	163
Bekzodjon Sheraliyevich Oblakulov Improving private education customer loyalty and brand trust through the implementation of digital marketing strategies	167
Sadulla Shodiyevich Urazov, Laylo Obidjon qizi Abduraxmanova Ta‘lim muassasalarida tashkiy tuzilmaning boshqaruv samaradorligiga ta‘siri	170
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Nuriddin Elamonovich Ernazarov Aksiz solig‘ining byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi muammolar	174
Шавкат Собирович Олтаев Рақамли иқтисодиёт шароитида суверен фондларни самарали бошқариш масалалари	177
Madina Sanjar qizi Khotamkulova Corporate efficiency as a financial market participant	181
BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Komil Vaxromovich Urazov, Qahramon Hamidovich Vaxobov Pochta xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar xarajatlari hisobining o‘ziga xos xususiyatlari	186
Ortiq Eshnazarovich Ernazarov Xizmatlar sohasini chiziqli ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilish va prognozlashtirish	191
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 15 сон МХХС асосида даромадларни тан олиш	198
Jamshidbek Axmad ug‘li Abdurasulov Korxonalarni qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXS asosida takomillashtirish	202
TA‘LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Умар Худайбердиев Мактабгача ва мактаб таълими - илм ва муваффақият калитидир	209
Bexzod Nematillayevich Gapparov OTM kichik guruhlarda temperamentga yo‘naltirilgan pedagogik model	212
Iltom Begmatdulobovich Mattiyev Chet tillarni o‘rganishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni	216
Anvar Maxkamovich Soatov Talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimotining samaradorligi	221
E‘TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Рамазон луғати Бахт нима?	225

3. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. Pearson.
4. Jahon Gretzel, U. (2021). Stienmetz, J., V. Bellász, Zsuzsa Szent István .
5. Kotler, P., & Keller, K. L. (2014). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education.
6. Kotler On Marketing Mastering Modern Marketing for Competitive Advantage Written by Bookey
7. Middleton, V. T. C. (1994). Marketing in travel and tourism. Butterworth Heinemann.
8. Lovelock, C., & Wirtz, J. (2016). Services Marketing: People, Technology, Strategy (8th ed.). Pearson.
9. Solomon, M. R. (2017). Consumer Behavior: Buying, Having, and Being (12th ed.). Pearson.

<p>Х.Юнусов</p> <p>Использование маркетинговых стратегий в развитии событийных и развлекательных услуг</p> <p>Аннотация. В статье освещаются вопросы эффективного использования маркетинговых стратегий в развитии событийных и развлекательных услуг в Новом Узбекистане. Обоснована необходимость научного совершенствования маркетинговых подходов в условиях усиления конкуренции на рынке событийных и развлекательных услуг, изменения потребностей потребителей и роста числа крупных мероприятий. Также в статье проанализированы этапы формирования индустрии событий, международный опыт и современные маркетинговые теории, в частности механизмы сегментации, определения целевой аудитории и позиционирования на основе модели STP.</p> <p>Ключевые слова: событийные и развлекательные услуги, массовые мероприятия, современные маркетинговые стратегии, сегментация, определение и позиционирование целевой аудитории, маркетинг услуг, интегрированные маркетинговые коммуникации, конкурентное преимущество.</p>	<p>Kh.Yunusov</p> <p>Utilization of Marketing Strategies in the Development of Event and Entertainment Services</p> <p>Abstract. This article examines the issues of effective application of marketing strategies in the development of event and entertainment services in New Uzbekistan. The necessity of scientifically improving marketing approaches is substantiated in the context of increasing competition in the event and entertainment services market, changing consumer needs, and the growing number of large-scale events. The article also analyzes the stages of formation of the event industry, international experience, and modern marketing theories, in particular the mechanisms of segmentation, target audience identification, and positioning based on the STP model.</p> <p>Keywords: event and entertainment services, mass events, modern marketing strategies, segmentation, target audience identification and positioning, services marketing, integrated marketing communications, competitive advantage.</p>
--	---

Hamdam Iris o'g'li Allayorov – SamISI, Marketing kafedراسi dotsenti v.b.

LOGISTIKA AXBOROT OQIMLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH

<p>Annotatsiya. Mazkur maqolada logistika tizimlarida axborot oqimlarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi hamda sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ularni optimallashtirish mexanizmlari ko'rib chiqildi. Ta'minot zanjirida ma'lumotlar hajmining ortishi sharoitida AI (Artificial Intelligence) yechimlarining prognozlash, marshrutni rejalashtirish, zaxiralarni boshqarish va risklarni kamaytirishdagi roli asoslab berildi. Tadqiqot natijasida logistika axborot oqimlarini intellektual boshqarish samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va qaror qabul qilish tezligini yaxshilashga xizmat qilishi aniqlangan.</p> <p>Kalit so'zlar: axborot logistikasi, sun'iy intellekt, ta'minot zanjiri, Big Data, optimallashtirish, operatsiya, raqamlashtirish.</p>
--

Kirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida logistika tizimlari murakkablashib axborot oqimlarining tezkorligi va aniqligi ta'minot zanjiri barqarorligini belgilovchi asosiy omilga aylandi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish logistika jarayonlarini real vaqt rejimida optimallashtirish imkonini beradi. Jahon iqtisodiyotining globallashtirish-raqamlashuv

sharoitida samarali rivojlanishini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida innovatsion rivojlantirishning samarali yondashuv, vosita va mexanizmlarini ishlab chiqishga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarining uslubiy asoslarini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotning qiymati va samaradorligini baholashning integral indikatorlarini yaratish, yangi avlod texnologiya-larining (Big Data, 5G, VR/AR, Cloud Computing, Artificial Intelligence, Blockchain) zamonaviy taraqqiyotdagi o'rni va ularni turli sohalarda tatbiq etishning samarali uslubiy yondashuvlarini asoslash, telekommunikasiya infratuzilmasi bilan qamrab olishning samarali va tejamkor vositalarini yaratish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda¹.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida logistika tizimlari nafaqat moddiy oqimlarni, balki ularga hamroh bo'lgan katta hajmdagi axborot oqimlarini ham samarali boshqarishni talab etadi. Zamonaviy logistika konsepsiyalari, xususan, real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishga asoslanadi. Axborot oqimlarining murakkablashuvi, global ta'minot zanjirlarining kengayishi va bozor noaniqligining ortishi sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlarini joriy etishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Logistika rivojlanishining zamonaviy holatini axborot-komp'yuter texnologiyalarisiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Logistikaning zamonaviy konsepsiyalarini tezkor komp'yuterlar, lokal tarmoqlar, telekommunikasiya tizimlari va axborot-dasturiy ta'minotisiz amalda joriy qilib bo'lmas edi. Logistik jarayonlarni boshqarishda axborotlar bilan ta'minlashning ahamiyati shunchalik balandki, ko'pchilik mutaxassislar axborotlar logistikasiga boshqarishning alohida bir quyi tizimi sifatida qaraydilar. Logistik tizimlardagi axborot oqimlari asosan iqtisodiy axborotlardan tashkil topadi va ular iqtisodiy obyektlar, hodisalar, jarayonlar to'g'risida turli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Logistika oid ma'lumotlar moddiy ne'matlar va xizmatlarni ijtimoiy ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, va istyemol qilish jarayonlarida to'planadi.

Logistik axborot oqimi deganda logistik operatsiyalarni boshqarish va nazorat qilishda foydalaniladigan logistik tizim ichida va logistik tizim bilan tashqi muhit o'rtasida harakatlanadigan ma'lumotlar to'plami tushiniladi.

Axborot oqimi – bu ma'lum ketma - ketlikda, belgilangan yo'nalishda harakatlanayotgan, hamda boshlang'ich, oraliq va oxirgi nuqtalari belgilab qo'yilgan axborotdir².

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Logistika axborot oqimlarini optimallashtirish kontekstida raqobatbardoshlik tushunchasi transport xizmatlarining iste'molchilarga taqdim etiladigan xizmat xususiyatlari va axborot oqimlarini boshqa transport korxonalarini bilan solishtirish orqali aniqlanadi. Xorijiy olimlardan taniqli iqtisodchilar Justin Lee Goldston “Sun'iy intellekt, blokcheyn va SCM integratsiyasi” AI va SCM o'rtasidagi texnologik aloqalarni chuqur o'rgangan tadqiqotchi.(1). Jan Pennekamp, Mihaela Gabriela Belu & Ana Maria Marinoiu, o'ssi Sheffi kabi olimlar ham axborot logistikasi va sun'iy intellekt optimizatsiyasi bo'yicha bir qancha ishlarni amalga oshirishgan.

Mahalliy olimlar va tadqiqotchilardan Sharipov Sherzod Odilovich “Logistika tizimlarida axborot almashinuvi va SI integratsiyasini tahlili”, Boboyev Nasim Diyorovich “Ta'minot jarayonlari logistikasi”, Olimova Bahora Shuhratovna “Logistika tendensiyalari va sun'iy intellekt texnologiyalarini logistika jarayonlarida qo'llash tahlili” va boshqa birqancha olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni uchratish mumkin. Lekin barchasi Axborot texnologiyalari va logistika integratsiyasi bo'yicha hamda O'zbekiston sharoitida AI va logistika jarayonlariga e'tiborni qaratishgan xolos. Logistika axborot oqimlarini sun'iy intellekt asosida optimallashtirish va takomillashtirish kabi masalalar yetarli darajada ko'rib chiqilmagan. Shunday qilib tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosida logistika axborot oqimlarini optimallashtirish ta'minot zanjirining barqarorligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Taklif etilgan model logistika tizimlarida xarajatlarni kamaytirish, tezkorlikni oshirish va risklarni minimallashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada logistika tizimidagi axborot oqimlarini optimallashtirishda transport xizmatlarining raqobatbardoshligini baholash bo'yicha iqtisodchi va transport sohasidagi olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida


¹ Allayorov H.I. Milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish – Dissertatsiya 2025 yil.

² Boboyev N.D., H.I.Allayorov “Logistika fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua” SamISI, 2025 y.

adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, farazlarni asoslash hamda sun’iy intellekt (SI) vositalari yordamida axborot oqimini boshqarish metodlari ishlatildi. Ushbu yondashuv logistika jarayonlaridagi ma’lumotlar oqimini samarali boshqarish va raqobatbardosh xizmat ko’rsatishni baholash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Yangi innovatsion texnologiyalar masofa nuqtai nazaridan geografik, lingvistik yoki me’yoriy bo‘lishidan qat’iy nazar mohiyatini kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga ular savdo xarajatlari, saqlash va yetkazib berish, logistik xarajatlarni, hamda vaqtni tejash imkonini beradi. Onlayn platformalar transchegaraviy tranzaksiyalarda ishonch va axborotni yetarliligi kabi muammolarni xal etish imkonini beradi.

Axborot jarayoni – bunda axborot o‘zgarishlarning aniq ketma - ketligiga ega bo‘lgan asosiy obyekt sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu holatda axborotni yig‘ish, tahlil qilish, qayta shakllantirish, saqlash, qidirish va tarqatish muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonni sun’iy intellekt orqali quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Logistik tizimda o‘tadigan axborot jarayoni davomida funktsiyalarning ishlash jarayoni¹

Logistika tizimi asosida axborot - texnika bazasining tashkil etilishi, boshqarishda zarur bo‘lgan strategik va taktik vazifalarni hal tishda axborotlarni yig‘ish va ularni ajratib olish asosiy rol o‘ynaydi. Axborotlarning xarakteri va uning sifatli ajratilishi qabul qilinadigan qarorlarning natijasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Logistika tizimning tuzilishi amaliyotda shuni ko‘rsatadiki, axborotlarni to‘g‘ri ajrata bilishda, ularni tahlil qilib, korxonaning kuchli va kuchsiz tomonlarini o‘rganib, axborotlarni yig‘ish va tayyorlash asosiy ko‘rsatkichlariga e’tibor berish zarurdir. Bunday tahlil, shu soha bo‘yicha puxta, qiziquvchi mutaxassislar bilan o‘tkazilishi lozim.

Ushbu nomuvofiqlik tanqidiy qabul qilinadigan darajadan oshib ketganda, korxonadan tomonidan ushbu muammoga e’tibor bermaslik axborot xizmatlarini ko‘rsatadigan biznesning mavjudligi va mavjudligiga shubha tug‘diradi. Bozor talablariga muvofiq axborot xizmatlarining raqobatbardoshlik darajasini saqlab turishning eng samarali vositasi bu biznes maqsadlariga erishish uchun xizmat ko‘rsatish obyektiga maqsadga muvofiq ta’sir qilish jarayoni sifatida tushuniladigan boshqaruvdir. Shu munosabat bilan logistikada axborot xizmatlarining to‘g‘ri amalga oshirilishi va raqobatbardoshligini boshqarishda obyektning aniqlash vazifasi dolzarbdir.

Bundan tashqari IoT va Blockchain sertifikatsiya, nazorat, real vaqt oralig‘ida pul o‘tkazmalari jarayonlarida yengilliklar yaratadi. Transchegaraviy to‘lovlar va raqamli moliyaviy xizmatlardagi innovatsiyalar xalqaro savdoni amalga oshirida, mamlakat raqobatbardoshligini o‘shirida va umuman iqtisodiy o‘shiriga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu texnologiyalarni

¹ Muallif tomonidan tahliliy ma’lumotlar asosida sun’iy intellect orqali chizildi.

rivojlanishi mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keldi. Kompaniyalar millionlab mijozlar bilan ishlashda, internetdan xaridlar bilan bog‘liq katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda sun’iy intellektdan keng foydalanmoqdalar. Shuning uchun logistika axborot oqimlarini sun’iy intellekt asosida optimallashtirish turlari kun sayin kengayib bormoqda. 2-rasmda bunday xizmat turlari keltirilgan.



2-rasm. Logistika axborot oqimlarini sun’iy intellekt asosida optimallashtirish mezonlari¹

Mamlakatimizda aloqa xizmatlari sohasini rivojlanishi, elektron hukumatni joriy etish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun hukumatimiz rahbari tomonidan barcha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda va me’yoriy xuquqiy asos yaratib berildi. Bugungi kunda ushbu me’yoriy-xuquqiy asoslar mamlakatimiz iqtisodiyotini AKT asosida rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikka erishish hamda jahon standartlariga mos raqobatbardosh kadrlar, tovar va xizmatlar yaratish uchun zamin yaratib beradi. Biroq buning uchun elektron hukumat va raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aloqa xizmatlari sohasi, axborotni qayta ishlash va himoya qilish, mualliflik xuquqlarini himoya qilish, rag‘batlantirish va moliyalashtirish masalalari bo‘yicha tartibga soluvchi me’yoriy xuquqiy asoslarini tadqiq etish va mamlakatimizga mos kelgan jihatlarni tanlab, me’yoriy xuquqiy asosimizni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sun’iy intellekt asosida optimallashtirish modeli quyidagicha: Taklif etilayotgan model quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) Ma’lumotlarni yig‘ish;
- 2) Ma’lumotlarni tozalash va integratsiyalash;
- 3) Mashinaviy o‘qitish asosida prognozlash;
- 4) Qarorlarni avtomatlashtirish;
- 5) Monitoring va qayta optimallashtirish.

AI texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish logistika samaradorligini oshiradi, axborot qayta ishlash vaqtini qisqartiradi va risk darajasini pasaytiradi.

Xulosa va takliflar. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida logistika axborot oqimlarini sun’iy intellekt asosida optimallashtirish xizmatlarining raqobatbardoshligini baholash va tahlil qilish metodologiyasi yanada ishlab chiqildi. Bularni quyidagicha keltirib o‘tsak maqsadga muvofiqdir:

1. Logistika axborot oqimlarini AI asosida optimallashtirishning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi.

2. Axborot oqimlari samaradorligini baholashning ko‘p mezonli metodikasi taklif etildi.

3. Axborot qayta ishlash vaqtini qisqartirishning matematik bog‘liqligi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosida logistika axborot oqimlarini optimallashtirish ta’minot zanjirining barqarorligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

¹ Muallif ishlanmasi

Taklif etilgan model logistika tizimlarida xarajatlarni kamaytirish, tezkorlikni oshirish va risklarni minimallashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Christopher M. Logistics & Supply Chain Management. Pearson Education.
2. Davenport T., Ronanki R. Artificial Intelligence for the Real World..
3. “Logistika” fanidan UUM. TermDU, 2019y.
4. Dadaboyev Q.A. Logistika: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2007.
5. Umarova D.M., Bo‘ronova M.A. Logistika: O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2006.

<p style="text-align: center;">Х. Аллаёров</p> <p style="text-align: center;">Оптимизация логистических информационных потоков на основе искусственного интеллекта</p> <p>Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты управления информационными потоками в логистических системах и рассмотрены механизмы их оптимизации на основе технологий искусственного интеллекта. Обоснована роль решений ИИ (искусственного интеллекта) в прогнозировании, планировании маршрутов, управлении запасами и снижении рисков в условиях увеличения объема данных в цепочке поставок. Исследование показало, что интеллектуальное управление логистическими информационными потоками способствует повышению эффективности, снижению затрат и повышению скорости принятия решений.</p> <p>Ключевые слова: информационная логистика, искусственный интеллект, цепочка поставок, большие данные, оптимизация, эксплуатация, оцифровка.</p>	<p style="text-align: center;">H.Allayorov</p> <p style="text-align: center;">Artificial intelligence-based optimization of logistics information flows</p> <p>Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of information flow management in logistics systems and examines the mechanisms of their optimization based on artificial intelligence technologies. The role of AI (Artificial Intelligence) Solutions in forecasting, route planning, inventory management and risk reduction in conditions of increased data volume in the supply chain is justified. The study found that intellectual management of logistics information flows serves to improve efficiency, reduce costs, and improve decision-making rates.</p> <p>Keywords: information logistics, artificial intelligence, supply chain, Big Data, optimization, operation, digitization.</p>
--	--

Nodirjon Fayzullayevich Bekbutayev – Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT ORGANI VA HUDUDIIY BOSHQARMALAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va uning hududiy boshqarmalari faoliyatining samaradorligi ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizmlarining institutsional asoslari, markaziy va hududiy darajadagi vakolatlar taqsimoti hamda ularning o‘zaro muvofiqlashuvi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: monopoliyaga qarshi siyosat, raqobat muhiti, davlat organi, hududiy boshqarmalar, institutsional samaradorlik, bozor tuzilmasi, monopoliyaga qarshi nazorat, hududiy rivojlanish, iqtisodiy tartibga solish, raqamli iqtisodiyot

Kirish. Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va uning hududiy boshqarmalari faoliyatining samaradorligi, avvalo, raqobatni cheklovchi amaliyotlarni aniqlash va ularga o‘z vaqtida huquqiy choralar ko‘rish bilan belgilanadi. Xususan, mahsulotlarni bog‘lash (tying) amaliyoti bir mahsulotni sotib olishni boshqa mahsulotni majburiy ravishda xarid qilish bilan bog‘lash orqali bozorga kirish to‘siqlarini kuchaytiradi va raqobatchilar faoliyatini cheklaydi. Bunday holatlarda antimonopol organlar tomonidan tezkor aralashuv bozor erkinligi va innovatsion jarayonlarni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksklyuziv savdo bitimlari sotuvchi va xaridor o‘rtasida faqat bitta yetkazib beruvchi bilan ishlash majburiyatini belgilab, raqobatchilar uchun bozorga kirish imkoniyatlarini qisqartiradi. Davlat organlari va hududiy boshqarmalar tomonidan ushbu bitimlarni tahlil qilish va baholash Sherman hamda Kleyton qonunlarida belgilangan tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon hududiy darajada raqobat muhitining buzilishining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Yakka hukmronlik (monopolizatsiya) holatlari bozorning bir subyekt tomonidan nazorat qilinishi va ustun mavqening suiiste‘mol qilinishi bilan tavsiflanadi. Monopoliyaga qarshi davlat

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.

Litsenziya № 025316.

Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.